Dunyo bo'yicha iqtisodiyotni globalashuvi sharoitida muhim vazifalardan biri o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish uchun, ayniqsa O'zbekiston Respublikasini xalqaro hamkorlikka integratsiyalashvida xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini bank amaliyotiga joriy etish bosh vazifalarda biridir. Jahondagi integratsiya jarayoni turli mamlakatlarning moliyaviy hisobotlarini ichki audit tomonidan tekshirish uchun sharoit yaratilishida va ichki audit bo'yicha moliyaviy risklarning ta'sirini bir xil metodikada hisoblash bo'yicha muammolarni yechimini topish uchun xalqaro talablarga mos ravishda moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni ichki audit tomonidan rejalashtirish masalasini yechimini topish muhim hisoblanadi. Bank tizimida ichki audit risklarini aniqlash va ularni baholash, shu asosda risklarni minimallashtirish, risklarni baholash, ushbu jarayonda xalqaro audit standartlaridan va ichki audit xizmatini rejalashtirish bo'yicha ilg'or xorij tajribalaridan mamlakatimiz bank tizimida samarali foydalanish barcha tijorat banklarini ichki auditini tashkil qilish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tijorat banklarining riskka asoslangan ichki audit xizmatini tashkil etishda hisobot davridagi moliyaviy holatini aniqlash va uning moliyaviy barqarorligini baholash, ichki audit tekshiruvlarini amalga oshirishda ichki audit tomonidan tijorat bankining moliyaviy natijalari bo'yicha asosiy va boshqa faoliyati natijalarining sifatini aniqlash va ularga baho berishi, tahliliy amallarni bajarish va uning faoliyatini yaxshilash uchun asos bo'ladi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirda jahon tajribasidan foydalangan holda sifat jihatidan tavakkalchilikka asoslangan ichki audit tizimini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tekshirish jarayoni shakllantirilib, unda tijorat banklarining faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish va uni faoliyatini operativ ravishda zamonaviy nazorat tizimi asosida nazorat qilish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish doimiy nazorat tizimiga mos keladi. Bizga ma'lumki, tijorat banklarida ichki bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish ham xalqaro standartlarga javob beradigan tarzda olib borish uchun banklarda ichki audit tizimi auditning xalqaro standartlari asosida tashkil etish, nazorat tizimini xalqaro amaliyotda qabul qilingan ichki nazorat shakliga mos holda amalga oshirish, buxgalteriya hisobining asosi bo'lgan hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilishi natijasida ularni operativ nazorat qilishni xalqaro amaliyotga mos ravishda yuritish imkoniyatini yaratadi.

Ichki auditning banklarda rivojlanishining o'ziga xos jihatlari ta'kidlab prof.N.F.Karimov tomonidan shunday fikr bildirilgan: "Ichki audit – bank xodimlarining o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza hisoblanadi. Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo'yicha obyektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishida ko'maklashish hisoblanadi"¹. Bundan tashqari ichki audit xizmatining yanada rivojlanishi va uning tomonidan audit standartlarini qo'llanishini va bankning faoliyatiga baho berish funksiyasini alohida ta'kidlab iqtisodchi olim A.K.Ibragimov tomonidan shunday fikr bildirilgan: "Ichki audit xizmati – bankda ichki nazorat holatini, jumladan, moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligi, hisobning ishonchligi va aniqligi, hisobotlarning to'liqligi va obyektivligi, O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi hujjatlariga, ta'sis va ichki hujjatlarga, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, shuningdek, bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchligini oshirish bo'yicha bank Kengashiga maslahatlar beruvchi mustaqil tarkibiy tuzilma"².

Ichki audit xizmati rahbari tijorat banklarining bank kengashi tomonidan tasdiqlanadi va ular boshqaruv xodimlari tarkibiga kiradi va boshqaruv apparati xodimlari kategoriyasi tarkibida hisobga olinadi, Bosh auditor lavozimiga tayinlashda muhim shartlaridan uning oliy ma'lumotga va tegishli bank sohasida ish stajiga ega bo'lishi hisoblanadi. Shu jumladan, auditor lavozimiga ushbu bank tizimida tegishli ichki audit bilan bog'liq sohalarda uch yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lgan shaxs tayinlanishi mumkin.

Jahonda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish masalasida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ular turli yo'nalishlarni ifodalaydi. Shu jumladan, muhim jihatlardan biri tijorat banklari faoliyatida ushbu standartlarni qo'llash jarayonining xususiyatlarini hisobga olish zarur deb hisoblaymiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tijorat banklarining ichki audit faoliyatiga auditning xalqaro standartlarining joriy qilinishi natijasida banklarning moliyaviy hisobotlarini xorijlik investorlar uchun tushunarli bo'lishi uchun sharoit vujudga keladi. Shuning uchun ushbu masalada Yurtboshimiz tomonidan xalqaro standartlarni joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi yanada ortadi va ushbu hisobotlarni xorijlik ekspertlar tomonidan tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu masalada, ya'ni tijorat banklarining ichki auditini tashkil etish, tavakkalchilikka asoslangan ichki audit xizmatini tashkil qilish va uni rejalashtirish masalasida turlicha fikrlar mavjudligi ushbu masalaning dolzarbligini belgilaydi. Riskka asoslangan ichki auditni tashkil etilishida iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Shu jumladan, ushbu masalada dastlab iqtisodchi-olim Z.T.Mamatov tomonidan shunday fikr bildirilgan: "Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo'yicha obyektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishida ko'maklashish hisoblanadi"³. Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvda auditning xalqaro standartlarning o'rnini belgilashda muhimligini rossiyalik iqtisodchi-olimlar Suvorova S.P., Kukanova N.V.ning ta'kidlashicha, "Jahonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasida auditning xalqaro standartlariga o'tishi uchun shart-sharoit yaratilishi, Rossiya davlatidagi yirik biznesning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi natijasida taqdim etilayotgan moliyaviy hisobotlarning auditini amalga oshirish natijasida biznes vakillari tushunadigan shaklda taqdim etishni doimiy ravishda takomillashtirib, uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirib borishni zaruriyatini keltirib chiqaradi"⁴. Demak, Rossiyadagi biznes vakillari xalqaro darajaga chiqishida, albatta, moliyaviy hisobotlarini tashqi bank auditidan o'tkazilishini majburiy tartibda belgilaydi va xalqaro standart asosida taqdim etish talabi qo'yilmoqda va natijada kompaniyalarning faoliyatini xalqaro standartlar asosida yuritish majburligini taqozo qiladi.

1 Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. – T.: "FAN," 2006. B.14–15.

2 A.K Ibragimov. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банкларида ички аудитнинг ташкилий асослари. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2013. – 384 б.Б.18–15.

3 Маматов З.Т. Аудиторлик фаолиятида муҳимлик шarti.//Ўзбекистон иқтисодий ахбортномаси, №10–11, 2002 й. – 40–41-б.

4 Трофимова Л.Б. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник, Издательства "Юрайт" 2018., -242с. С.29-10.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shuni aytish mumkinki, auditning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablarni bajarishga zamin yaratadi, uni tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni bajarishni belgilab beradi. Ushbu masala aksiyadorlik jamiyatida yanada muhim ahamiyatga egaligi va ularning aksiyalarini jahon fond birjalariga joylashtirishi uchun beriladigan axborot va moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim etishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Auditorlik qo'mitasining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) har bir ichki audit tekshiruvlari o'tkazilgandan so'ng taqdim etiladigan ichki audit xizmati tomonidan tuzilgan auditorlik hisobotlarini o'rganish va tahlil qilish;
- 2) ichki audit bo'yicha choraklik auditorlik hisobotlarini o'rganish va ularning natijalarini bank Kengashiga taqdim etish;
- 3) tashqi audit tekshiruv uchun zarur bo'lgan texnik vazifalarni ishlab chiqishda Bank Kengashiga amaliy yordam berish;
- 4) tashqi auditor takliflarini baholashni o'tkazishda Bank Kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlashda Bank Kengashiga tavsiyalar tayyorlash;
- 5) ichki audit xizmati va tashqi auditorlarning tavsiyalarini bajarish jarayonini boshqarish bo'yicha ishlarni Bank Boshqaruvi raisi bilan muvofiqlashtirish;
- 6) tashqi auditorlar hisobotlari, jumladan, rahbariyatga yo'llangan xatni ko'rib chiqish va ularni Bank Kengashiga taqdim etish⁵.

Har bir mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tamoyillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bundan tashqari, Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari, ularga qo'yilgan talablar, audit xizmati rahbariyati va xodimlariga qo'yilgan talablar, audit xizmati mustaqilligi batafsil yoritilgan. Ichki audit bilan nazorat qiluvchi organlar, Markaziy bank bilan bo'lgan munosabatlari bo'yicha masalalar yoritilgan.

Shunday qilib, tijorat banklarining ichki auditini samaradorligi ko'p jihatdang bankning faoliyatini to'g'ri amalga oshirishini tekshirish natijasida ichki audit tomonidan shakllanadigan auditorlik xulosasi va ular asosida auditorlik qo'mitasiga hisobotlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bank direktorlar kengashi turli risklar baholash tizimining menejmentini tashkil etishga javobgar hisoblanadi. Bank kapitali darajasining risk tizimini ishlab chiqish va ichki siyosat tizimi nazoratini tashkil qilish masalasini ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqadi. Direktorlar kengashi tizimli ravishda ichki nazorat tizimini yetarli darajada ishni olib borishiga e'tibor qaratadi. Ushbu masalani yanada batafsilroq ko'radigan bo'lsak, nazoratga doir Bazal qo'mitasining ma'lum bir tamoyillari va yo'riqnomalari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har birida nazorat masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shu yo'riqnomalarni guruhlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi 1-jadvaldagi kabi shaklga ega bo'ladi. Ushbu jadvalda asosiy yo'riqnomalar ro'yxati berilgan bo'lsa-da, ularning mazmuni bilan Bazal qo'mitasining sayti (www.bis.org/bcbs/publ/index.htm). orqali tanishish mumkin. Ushbu ma'lumotlar 2004-yil ma'lumotlariga tegishli bo'lib, shundan keyin 2010-yilda Bazal III talablari ishlab chiqilgan va unda kapitalning yetarliligi va likvidligiga taalluqli masalalar keng yoritilgan.

Ushbu masalalarni tahlil qilish maqsadida Bazal Qo'mitasi tomonidan chop qilingan hujjatlarni tahlil qilishimiz natijasida ularni ichki nazoratga bog'liq jihatlarni ishlab chiqish va uning, ya'ni Bank nazoratining Bazal Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib chop etilishini nazorat qilishimiz lozim va shu munosabat bilan ushbu hujjatlarning tahlilini quyidagi jadvalda ko'rishimiz va uni tahlil qilishimiz mumkin deb o'ylaymiz.

1-jadval: Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan chop etilgan nazorat tekshiruvlari jarayoni bilan bog'liq hujjatlar⁶

1.	B qism. Kapitalning yetarliligi to'g'risidagi kelishuv bo'yicha bozor risklari to'g'risidagi tuzatishlar	1996-yil yanvar oxirgi tahriri
2.	Bank nazorati samaradorligining asosiy tamoyillari	1997-yil sentyabr oxirgi tahriri
3.	Asosiy tamoyillar metodologiyasi	1999-yil oktabr oxirgi tahriri
4.	Derivativ risklarni boshqarish bo'yicha qo'llanma	1994-yil iyul oxirgi tahriri
5.	Foiz risklarini boshqarish	1997-yil sentabr oxirgi tahriri
6.	Elektron bank operatsiyalari risklarini boshqarish	1998-yil mart oxirgi tahriri
7.	Ichki nazorat tizimi	1998-yil sentabr oxirgi tahriri
8.	Qarz mablag'lari yuqori hissasi bo'lgan idoralar bilan bankning o'zaro aloqasining ishonchli amaliyoti	1999-yil yanvar oxirgi tahriri

5 Колин Друри. Управленческий и производственный учет. –Москва: ЮНИТИ -ДАНА, 2014. 735С. С.18–20.

6 Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточненные рамочные подходы. Июнь 2004. Банк международных расчетов 2004. С.195.



9.	Korporativ boshqarish sifatini oshirish	1999-yil avgust oxirgi tahriri
10.	Likvidlilikni boshqarishning ishonchli amaliyoti	2000-yil fevral oxirgi tahriri
11.	Kredit risklarini boshqarish tamoyillari	2000-yil sentabr oxirgi tahriri
12.	Valyuta operatsiyalari bo'yicha hisoblashlar risklarini boshqarish bo'yicha nazoratga doir qo'llanma	2000-yil sentabr oxirgi tahriri
13.	Foiz risklar nazorati va boshqaruv tamoyillari	2001-yil yanvar sharhlar uchun
14.	Elektron bank operatsiyalari risklarini boshqarishning asosiy tamoyillari	2001-yil may sharhlar uchun
15.	Banklarda ichki audit va auditor hamda nazorat organlari bilan munosabatlari	2001-yil avgust oxirgi tahriri
16.	Bank mijozlarining tegishli nazorati	2001-yil oktabr oxirgi tahriri
17.	Bank nazorati organlari va bank tashqi auditorlari o'rtasidagi munosabatlar	2002-yil yanvar oxirgi tahriri
18.	Bank nazorati organlari uchun zaif (muammoli) bank bilan ishlashga doir qo'llanma.	2002-yil yanvar oxirgi tahriri
19.	Transchegaraviy elektron bank operatsiyalari nazorati va boshqarish	2002-yil oktabr sharhlar uchun
20.	Operatsion risklarni nazorat qilish va ishonchli boshqarish amaliyoti	2003-yil fevral oxirgi tahriri

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, bevosita ichki audit masalasi, ya'ni "Banklarda ichki audit va auditor hamda nazorat organlari bilan munosabatlari" masalalari ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari bank nazorati organlari va bank tashqi auditorlari o'rtasidagi munosabatlar alohida ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida audit jarayonini rejalashtirishni shakllantirish va uni AHSlari talablariga uyg'unlashtirish bo'yicha olib borilgan natijalarni umumlashtirish kelgusi moliyaviy hisobotlar bo'yicha tegishli auditorlik xulosalarini shakllantirish orqali ichki auditga bo'lgan ishonchni ortishiga va tijorat banklari uchun investitsiyalar xarakterini oshirishni bashorat qilishga, tushuntirishga va tushunishga olib keldi. Shuningdek, tijorat banklarida ichki audit jarayonini oqilona tashkil etish va uni AXS asosida shakllantirish va mavjud natijalarni ishonchligi tekshiruv va kuzatuvlar asosida tasdiqlandi.

"Auditorlik riski" deganda auditor tomonidan moliyaviy hisobot jiddiy qalbakilashtirilganda, olingan auditorlik dalillariga mos kelmaydigan auditorlik xulosasini berganda paydo bo'ladigan riskka aytiladi.

Auditorlik riski quyidagi 3 ta komponentdan iborat bo'ladi: topa olmaslik riski, nazorat riski va ajratib bo'lmaydigan risk⁷.

Ushbu masalada iqtisodchi-olimlar tomonidan quyidagicha fikr bildiriladi: "Auditorlik riskini to'liq bartaraf etish mumkin emas, shu sababli auditni rejalashtirish jarayonida turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni hisobga olish orqali risklarni imkoni boricha kamaytirishga harakat qilinadi.

Umumiy auditorlik riski quyidagi turlardan iborat:

- ichki xo'jalik riski.
- nazorat riski.
- topa olmaslik riski.

Audit ish jarayonida ushbu risklarni o'rganishi, ularni baholashi va baholash natijalarini hujjatlashtirishi kerak. Risklarni aniqlashning qiyinligi shundaki, ularni aniq qiymat shaklida baholash mumkin emas, shuning uchun ular auditor tomonidan yuqori, o'rta va past darajada aniqlanadi⁸. Ushbu masalani yanada rivojlantirib, chet ellik iqtisodchi-olimlar tomonidan quyidagicha fikr bildirilganligini ko'rishimiz mumkin. "Auditning maxsus dasturi asosida foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot hamda balansning moddalarini aniqlash, masalan: asosiy kapital, pul mablag'lari, investitsiyalar yoki debitor qarzlari. Tashqi auditorlar an'anaviy ravishda kreditlarni yomon boshqarishni va qallobliklarni nazorat qilishi lozim. Shu bilan birga auditni amalga oshirish jarayonida kamdan-kam hollarda kredit oluvchilarning kredit tahlili batafsil ko'rib chiqiladi⁹.

Ichki bank audit tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlarning maqsadi, fikrimizcha, quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- tijorat banklari oldiga qo'yilgan vazifani bajarishiga bevosita yordam berish;
- bank faoliyatini yaxshilash bo'yicha amaliy takliflar berish;

7 Сборник международных стандартов аудита, выражения уверенности и этики. – Алматы, 2007. – 1260 с.

8 Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П., Лебедев Е.А. Аудит банков: Учеб. пособие. – М.: "Финансы и статистика," 2001. – С.39.

9 Грюнинг Х., Брайович С. Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском/Пер. с англ. – М.: Издательство "Весь Мир", 2004. – С.51.



- tashqi bank auditi bilan auditorlik tekshiruvini muvofiqlashtirib olib borish natijasida ularning ishini yengillashtirish orqali shartnoma qiymatini arzonlashtirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Tekshiruv o'tkazish davomida reja qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Shunday qilib tijorat banklarida auditorlik riski nisbatan keng ma'noni anglatadi va uning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim.

Umumiy auditorlik riskini aniqlash tartibi bo'yicha adabiyotlarda quyidagi formula orqali ifoda qilinadi. Dastlabki auditorlik riski modelini aniqlash tartibiga ko'ra

$$\text{DAR}=\text{IR}\times\text{CR}\times\text{DR} \quad (1.1)$$

DAR(Desired audit risk) – auditorlik riskining maqbul to'plami;

IR(Inherent risk) – ichki xo'jalik riski;

CR(Control risk) – nazorat riski;

DR(Detection risk) – topa olmaslik riski.

Ushbu formulaga ko'ra auditorlik riskining maqbul to'plamiga ta'sir qiluvchi turli xil omillar ta'sir qiladi. Ushbu formuladan tijorat banklarining ichki auditida ham foydalanish mumkin.

Demak, ushbu risklarni shu guruhlar asosida baholash lozim.

Tijorat banking filiali bo'yicha ichki auditor tomonidan aniqlangan ichki xo'jalik riski – 85%, nazorat riski – 64% va topa olmaslik riski –9%ni tashkil etadi. Ushbu formula bo'yicha hisoblaganimizda quyidagicha natijaga erishildi.

$$\text{DAR}=\text{IR}\times\text{CR}\times\text{DR} =0,85\times0,64\times0,09=0,04896 \text{ yoki } 4,89\%$$

Ushbu formula asosida auditor hisoblash natijalari bo'yicha auditning maqbul to'plami 4,89%dan yuqori bo'lmasligi, auditorning fikricha, ushbu rejalashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ichki audit tomonidan ushbu ko'rsatkichlar 5 yil davomida Bank filialida quyidagicha bo'lgan.

1-jadval: Bank filialida ichki audit tomonidan auditorlik riskining maqbul to'plami dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1. Ichki risk	0,782	0,686	0,721	0,866	0,878
2. Nazorat riski	0,521	0,412	0,511	0,423	0,565
3. Topa olmaslik riski	0,083	0,081	0,096	0,106	0,108
4. Auditorlik riskining maqbul to'plami	0,0338	0,0229	0,0354	0,0388	0,0536

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2017-yil 3,38%, 2018-yili 2,29% bo'lib, oxirgi yilda auditorlik riskining maqbul to'plami 5,36% atrofida ko'rsatkichni tashkil etgan. Lekin ushbu usul yaxshi bo'lganligi bilan auditor ko'pchilik hollarda undan foydalanmaydi va ushbu formulaning samarasi kamroq. Shu sababli samarali reja tuzish maqsadida auditor riskni hisoblashning ikkinchi usulidan foydalanadi, ya'ni topa olmaslik riskini aniqlaydi va tegishli auditorlik ma'lumotlari asosida ushbu ko'rsatkich hisoblanadi. Shu maqsadda auditorlik riski modeli quyidagicha qayta hisoblanadi:

$$\text{DR}=\text{DAR}/\text{IR}\times\text{CR} \quad (1.2)$$

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida auditor o'ziga maqbul auditorlik riskini 5% deb belgiladi. U holda yuqoridagi ma'lumotlar asosida hisoblaganimizda quyidagicha ko'rsatkichlarga erishildi:

$$\text{DR} = 0,05/0,8\times0,5=0,125$$

Demak, ushbu formulaga ko'ra, auditning mohiyatidan kelib chiqib, auditorlik tekshiruv natijasi bo'yicha auditning ishonchlilik darajasini aniqlashimiz mumkin. Uni hisoblashda $100\%-12,5\%=87,5\%$ ni tashkil etadi. Demak tijorat bankida auditini amalga oshirishda audit natijasi bo'yicha kutilayotgan ishonchlilik darajasi 87,5% ni tashkil etadi va bank auditining vazifasi audit o'tkazishda audit tanlovini yanada kengaytirish va tekshiruvlar ko'lamining ko'proq qismini jalb etishga qaratishi lozim. Shunday qilib, ushbu formulaga ko'ra ichki xo'jalik riski va nazorat riski bilan topa olmaslik riski o'zaro bog'liq bo'ladi va ular turli kombinatsiyalarda turlicha ta'sir qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari faoliyatini ichki audit jarayonida auditning xalqaro standartlarini qo'llash natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

*Birinchi*dan, banklarda foydalanilayotgan ichki audit tizimida xalqaro standartlar asosida tijorat banklarining ichki auditini amalga oshirish metodikasi asosida ichki auditni rejalashtirish jarayonida zarur bo'lgan usullarini ifodalovchi holatlarni ko'rsatishni, metodologik jihatlarni tavakkalchilikka asoslangan ichki audit xizmatini tashkil etish bo'yicha takliflar berildi.

*Ikkinchi*dan, banklarda xalqaro standartlar asosida ichki auditni amalga oshirishning usullari va texnikasi, bunda buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan ishchi schyotlar rejasini, hisob registrlarini schyotlarga birlashtirilishini, hujjatlar shakllarining albomini, inventarizatsiyani o'tkazish muddatlari va tartibini, zamonaviy komp'yuterlar va boshqa tashkiliy texnikasi vositalarni ichki audit tomonidan nazorat qilish metodikasi ishlab chiqildi va bank faoliyatida qo'llandi.

*Uchinchi*dan, tijorat banklarida xalqaro audit standartlar asosida ichki audit uslubiyatini ishlab chiqish va uni rejalashtirish, ichki audit xodimlari mehnatini tashkil qilish usulini, funksional majburiyatlarni auditor va auditor yordamchilari o'rtasida taqsimlashni tanlangan variantini, tekshirishni tashkil etish rejasi va dasturini muhokama qilish, bosh auditorni tayinlanishi, ishdan bo'shatilishi, huquqlari, majburiyatlarini ko'rsatishi lozim.

Adabiyotlar / Litetatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 10-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 5-fevralda ma'qullangan). 2021. 5-fevral.//www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.(yangi tahriri). 2016.13 aprel №78-II.//www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son,http://lex.uz/docs/3107040
4. Anthony, Robert Newton. Accounting principles /Robert N. Anthony, James S. Reece, D.B.A. – 7th edition, Irwin, 2006. 686 p.;
5. Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудит. – Т.: "ФАН," 2006. Б.14–15.
6. Ибрагимов. А.К.Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банкларида ички аудитнинг ташкилий асослари. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2013. – 384 б.Б.18–15.
7. Barry Elliott., Jamie Elliot, Financial Accounting and Reporting London 1993, 625 p.F.Wood Business Accounting. London Pitman. 1989.-353 p.
8. Аликсенов А.С. Международные стандарты финансовой отчетности. –М.: Издательство Юрайт, 2018.-404с.
9. Ибрагимов А.К.,Марпатов М.Д.,Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2010. –272б. Б.64-65.
11. Дусмуратов Р.Д., Тулаев У.И. Молиявий ҳисобот: назарий, услубий ва амалий жиҳатлари. –Т.: "Extremum-Press", 2012, –144 б.



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.